



“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun

Qonunning mazmun-mohiyati



Geografik obyektlarga jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning ism-sharifini berishga yo'l qo'yildi.

Qonunga muvofiq



O'zbekiston yoki jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning ismi-sharifini berish ularning vafotidan keyin O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan hamda, qoida tariqasida, nomlari mavjud bo'lmagan aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nisbatan amalga oshiriladi.

Qonunda quyidagilar belgilandi:

- Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlash jarayonida mahalliy aholining fikri hisobga olinadi.



Qonun bilan



Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni kelib tushganidan keyin muhokama qilish uchun ularni **5 ish kunidan** kechiktirmay o'z rasmiy nashrlarida, rasmiy veb-saytlarida, shuningdek ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.



Qonun bilan



Takliflarning muhokamasini o'tkazish muddati geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflar e'lon qilingan sanadan e'tiboran **o'n besh kundan** kam bo'lmasligi kerak.





GEOGRAFIK OBYEKTLAGA NOM BERISHDA AHOLINING FIKRI O'RGANILADI



Geografik obyektlarga **jahon tarixida chuqur iz qoldirgan** shaxslarning ismi-sharifini berishga yo'l qo'yildi

Bunda O'zbekiston yoki jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning ismi-sharifini berish ularning vafotidan keyin **Prezident qaroriga asosan** hamda, qoida tariqasida, **nomlari mavjud bo'lmagan aholi punktlarining tarkibiy qismlariga** nisbatan amalga oshiriladi



Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlash jarayonida **mahalliy aholining fikri hisobga olinadi**



Takliflar kelib tushganidan keyin muhokama qilish uchun ularni **5 ish kunda** tegishli organlar o'zlarining rasmiy nashrlarida, rasmiy veb-saytlarida, shuningdek ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi



Shuningdek, takliflar muhokamasi ular e'lon qilingan sanadan e'tiboran **15 kundan kam bo'lmasligi** kerak.

E'tiboringiz uchun rahmat

